

TA'LIM TIZIMINI MODERINIZATSIYALASHDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARI ASOSIY OMIL SIFATIDA

*Muhammadjonova O‘g‘iloy Bahodirjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti talabasi*

Annatatsiya: Mazkur maqolada, yurtimizdagi rivojlanib borayotgan ta’lim tizimi haqida va ta’lim tizmini moderinizatsiyalashning muhum jihatlari shuningdek, talabalarga ta’lim tizimini rivojlanishida xalqaro baholash dasturlarining qanday o‘ringa ega ekanligi haqida talaba yoshlarga ma’lumotlar berilib o‘tildi.

Abstract: In this article, information was given to students and young people about the developing education system in our country and the important aspects of modernization of the education system, as well as the role of international assessment programs in the development of the education system.

Аннотация: В данной статье студентам и молодежи была предоставлена информация о развивающейся системе образования в нашей стране и важных аспектах модернизации системы образования, а также о роли международных оценочных программ в развитии системы образования.

Kalit so‘zlar: ta’lim, taraqqiyot, jamiyat, talaba, xalqaro tajribalar, moderinizatsiya, xalqaro baholash dasturlari, davlat, texnologiya, pedagogik, ilg‘or texnologiyalar.

Key words: education, development, society, student, international experiences, modernization, international assessment programs, state, technology, pedagogy, advanced technologies.

Ключевые слова: образование, развитие, общество, студент, международный опыт, модернизация, программы международной оценки, государство, технологии, педагогика, передовые технологии.

Ma’lumki dunyodagi mavjud barcha jamiyatning kelajagi, taraqqiyoti ta’lim tizimining qay darajada taraqqiy etgani bilan belgilanadi. Shu boisdan ham, hozirda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan ildam borayotgan davlatimizning uzluksiz ta’limni isloh qilish va takomilashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani ham sir emas. Ta’lim-tarbiya jarayoni murakkab jarayon hisonlanadi.

Uning murakkabligi shundaki, modernizatsiya sharoitida ta’limning samaradorligiga erishishdir, samaradorlikka erishish esa ko‘plab omillar, xususiyat va tendensiylar bo‘lishini talab etadi. Birinchi navbatda, ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchida motiv shakllanganligi, ularning orasida o‘zaro munosabat faollik nuqtai

nazaridan bog‘langanligi, ta’lim oluvchi yangi bilimlarni egallashga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga harakatda bo‘lishi, ta’lim beruvchi esa darsni tashkil etishda uning mukammalligiga, to‘g‘ri tashkil etilishiga, metodika esa talabga javob beradigan darajada tuzilganligi kabi xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishi lozim. Yurtboshimiz tashabbuslari bilan yangi davrga qadam qo‘yilayotgan bir davrda keng fikrlash doirasiga ega, bilimlarni chuqur egallagan, o‘z sohasida yetuk va davr talabiga javob beraoladigan shaxslarga bo‘lgan e’tibor va talab kuchayotgani yana bir karra, modernizatsiyalangan ta’limni va sifatli tashkil etilgan ta’limni joriy etish masalasini ko’ndalang qilib qo‘yadi. Shu sababli ham, bilimdon, tashabbbuskor, jamiyatda faol va o‘z mehnatida bilan dunyoni zabit eta oladigan shaxs shakllantirilishi lozim. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan birgalikda birlasha oladi, o‘z mazmun mohiyatini boyitib boradi va ta’lim jarayonida samarali yondashuvning yangi imkoniyatlarini ochib bera oladi. Bunga misol tariqasida axborot texnologiya, raqamli texnologiya va zamonaviy pedagogik texnologiyalar uyg‘unlashuvini misol qilib keltirish mumkin.

Fikrimizni oydinlashtiradigan bo‘lsak, axborot texnologiya, raqamli texnologiya va zamonaviy pedagogik texnologiyalar uyg‘unlashuvi o‘rtasidagi muloqot deb atash mumkin. Bular yangi davr pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi bo‘lib, u ta’lim jarayonida texnik vositalarning mukammallahsgan zamonaviy turi sifatida qo‘llana boshlandi. Ta’limni modernizatsiyalash va samaradorligi haqida so‘z yuritar ekanmiz, unda yana bir muhim omil xalqaro tajribalar o‘zlashtirishni nazarda tutish maqsadga muvofiq albatta. Xalqaro, chet el tajribasi ya’ni ta’limda o‘z yo‘nalishiga va uslubiga ega bo‘lgan davlatlarning ilg‘or tajribalarini olib kirish hozirda mamalakatimiz davlat siyosati oldida turgan maqsadlardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Birobarin, “O‘zbekiston Respublikasi Xalq tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi” sini tasdiqlanishi buning yaqqol isbotidir. Ushbu konsepsiya O‘zbekiston Respublikasi umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tizimini tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv- tarbiya jayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida tasdiqlandi, shu bilan birga O‘zbekiston respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytengi bo‘yicja jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishishiga erishish yana bir ustuvor maqsaddir, shuningdek

- uzluksiz ta’lim mazmunini sifat jihatdan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim tarbiya jarayonida individullashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

▪ xalq ta'lifi sohasidagi zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish kabi vazifalarni bajarish odinga maqsad qilib qo'yilgan va vazifalarni bajarish bo'yicha ilk qadamlar tashlanmoqda.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda xorij tajribalarni o'rganish, tizimga xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizim bilan qiyosiy, xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish, tizimda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim sanaladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'lifi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida"gi 997-soni qarorida eng ustuvor vazifa qilib quyidagilar olindi: - xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o'qish; - PISA, PIRLS, baholash dasturi yo'naliqidagi savollar milliy bazasini yaratish va o'quv dasturlariga integratsiya qilish. O'zbekiston Respublikasida xalq ta'lifi tizimida olib borilayotgan amaliy ishlar, ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to'g'risida hukumat qarorining qabul qilinishi ta'lim sohasiga kiritilgan eng katta yangiliklardan biri bo'ldi.

Davlatimizga ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi. O'quvchilarni xalqaro PISA, PIRLS baholashning asl mohiyati o'quvchilarda tafakkur uyg'oqligi, ularni ixtirochi, ijodkorlikka o'rgatishning asosiy belgisi hisoblanadi. O'zbekistonda ta'lim tizimiga xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda o'quvchilarning bilim darajasini baholash va monitoring qilishning "Milliy dasturi"ni yaratish hozirgi kun talabiga mos keladi. Yana shuni aytish joizki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o'zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'lifi tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida" gi farmoni PF5538 son. 05.09.2018 yil.
2. N.Muslimov, Z.Raximov, X.Qodirov "Ta'lim texnologiyalari" darslik. Toshkent-2017. 11-bet.
3. M.F. Hakimova, N.X. Xo'jayev, D.Q. Axmedov. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma.- T.:TDIU nashr., 2006y, 52-53-betlar.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli Farmoni
5. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagli PF-4947 sonli Farmoni.

6. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). NEED TO FORM CREATIVE COMPETENCE IN EDUCATORS. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(3), 162-165.
7. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL ACTIVITY OF EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(3), 166-169.
8. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). DIFFERENT APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SPEECH. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(3), 158-161.
9. Oyatillokh Alishero'g'li, E. (2022). Ways and Methods of Formation of Communicative Competence in Future Teachers. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(4), 63-65.
10. Oyatillokh Alishero'g'li, E. (2022). Ways and Methods of Formation of Communicative Competence in Future Teachers. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(4), 63-65.
11. Iqboljon O'g'li, T. J., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON. *PEDAGOGS jurnali*, 9(3), 4-7.
12. Alisher o'g'li, E. O. (2022). Issues of Retraining and Professional Development of Pedagogical Personnel. *The Peerian Journal*, 5, 192-194.
13. Yusufovich, A. A., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR THE FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(6), 1157-1161.
14. Alisher o'g'li, E. O., & Zokirjon o'g'li, M. J. (2022). The Role of Psychology in the Treatment of Heart Failure in Humans. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 5, 500-502.
15. Ахмедов, А., Эгамбердиев, А., & Сотволдиева, О. (2022). The role of pedagogical technologies in improving the quality of education. *Zamonaviy innovatsion tадqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar*, 1(1), 59-60.
16. Alisher o'g'li, Y. O. (2022). IJTIMOIY MUHITNING SHAXS RIVOJLANISHIGA TA'SIRI. *PEDAGOGS jurnali*, 18(1), 220-225.
17. Yusufovich, A. A. (2022). PEDAGOGICAL ASPECTS OF FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. *Science and Innovation*, 1(4), 136-138.
18. Zokirjon o'g'li, M. J. (2022). PROFESSIONALISM AS A GENERALIZED TYPICAL MODEL OF A PROFESSIONAL IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. *Journal of new century innovations*, 11(1), 186-189.